RKTUning Toshkent shahridagi filialida 2025/2026-o‘quv yili uchun kirish imtihonlari boshlandi

// 22 July 2025 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/rktuning-toshkent-shahridagi-filialida-2025-2026-o-quv-yili-



Ayni paytda sanoatning barcha sohalarida, xususan, kimyo sanoatida yuqori malakali yosh mutaxassislarga talab ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, ularni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugun D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filialida 2025/2026-o‘quv yili uchun kirish imtihonlari boshlandi. Bo‘lajak talabalar xorijiy til bo‘yicha bilimlarini sinovdan o‘tkazishdi.



Imtihon jarayonlarining sifatli va shaffof o‘tishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ota-onalar uchun alohida kutish zallari tashkil etildi. Unda “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari Yevgeniy Korjikov ham ishtirok etib, bo‘lajak kimyogarlarni tabrikladi va muvaffaqiyatlar tiladi.

Kimyo va informatika fanlari bo‘yicha imtihonlar 24-iyul kuni bo‘lib o‘tadi.


Se
34
78.97
Si
14
Cr
24



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati